



**OZOD SHARAFIDDINOVNING “O’LSAM AYRILMASMAN
QUCHOQLARINGDAN” MA’QOLASIDAGI MA’NAVIYATGA
OID LEKSIK BIRLIKLAR**

Sayfullayeva Fotima Baxodir qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti fakultet 3-bosqich talabasi

Telefon raqam: +998919205260

fotimasayfullayeva004@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10002482>

ARTICLE INFO

Received: 05th Oktober 2023

Accepted: 12th Oktober 2023

Online: 13th Oktober 2023

KEY WORDS

Ma’naviyat leksik-semantik kategoriyasi, sabr, sema, Vatan, vatanparvarlik, tarbiya, atov birliklar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada “O’lsam ayrilmasman quchoqlaringdan” asaridagi ma’naviyatga oid birliklarning ma’naviy guruhlarini ajratib olinib, leksik-semantik jihatdan tahlil qilindi. Mazkur maqolaning o’quvchilar ma’naviy tarbiyasidagi ahamiyati, ta’siri haqida fikr-mulohazalar yuritilib, “vatanparvarlik” ma’naviy guruhiga oid birliklarning faol qo’llanishi tahlil etildi.

KIRISH

Ma’naviyat masalasi umumjahon taraqqiyotiga daxldor tushuncha hisoblanib, uning xususiy ma’nosi shaxs ma’naviy hayotiga, har bir millat kundalik turmushiga bevosita aloqador holda yuzaga keladi. Ta’kidlash lozimki, ma’naviyat leksik kategoriyasining mohiyatini ochib berishda millat tarixi, madaniyati, etnolingvistik xarakterdagi manbalar, uning bugungi kunga qadar bosib o’tgan turmush tarzi, erishgan yutuqlari, an’ana, urf-odat, qadriyatlarini muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Sahrodagi sayyoh har doim buloqdan chanqog’ini bosadi. Xuddi shuningdek, inson ham necha-necha azoblar va qiyinchiliklar bilan ma’naviyat chashmasini izlaydi. Oilada, ota-onalar o’gitlarida, qarindosh-urug’lar nasixatlarida, qo’ni-qo’shnilar tarbiyasida, vatanimizning siyosiy jarayonlarida vatanparvarlik, sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik, sabr-toqat, vafo kabi ma’naviy qarashlarning muhimligi e’tiborda va etirofda. Ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning kuch - qudratidir. U yo’q joyda hech qachon baxt-saodat to’kis bo’lmaydi. Ma’naviyat haqida gap ketar ekan, men avvalo, insonning ruhiy poklanish va yuksalishga da’vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e’tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg’otadigan qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman.[1, 13]

Ma’naviyat insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyati, ya’ni mehr-muruvvat, adolat, to’g’rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go’zallikni sevish, undan zavqlanish, “yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko’plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir”. [2, 46.] Mana shunday yuksak fazilatlar bilan ulg’aygan yoshlarning kelajagi buyuk bo’lishi tabiiy.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.



Milliy ma'naviyat, avvalo, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning or-nomusi, vijdoni, e'tiqodi, axloqi, milliy dunyoqarashi bilan belgilanadi". Avvalo, ma'naviyat tushunchasi va uning mazmun mohiyatini anglash, tushunish, idrok etish, tizimlashtirishda lingvistik xususiyat muhim o'rin tutadi. Inson va jamiyat taraqqiyotini ma'naviyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Demak, ma'naviyat insonning hayot faoliyati, jamiyat taraqqiyoti, mazmuni bilan chambarchas bog'liq.

"Ma'naviyat" leksik-semantik kategoriyasining mohiyati uning tarkibiy qismlarini aniqlash yo'li bilan ochiladi[3, 15]. Masalan, *e'tiqod, odob, vijdon, ma'rifat, sabr, hayo, ibo, vafo, sadoqat, or-nomus, izzat, poklik, oriyat, sodiqlik, ishonch, insof, diyonat, kamtarlik, mehnasevarlik, mardlik, odamiylik, saxiylik, odillik, mukammal, mehribon, shafqatli, mo'min-qobil, iroda, insof, bag'rikenglik, samimiylik, xushmuomalalik, erkinlik, insonparvarlik, qahramonlik, totuvlik, adolat, madaniyat* kabi ma'naviy guruh va uyalarga bo'linadi. Ko'rinib turganidek, "ma'naviyat" leksik-semantik kategoriyasi shaxs ma'naviy sifatleri bilan bog'liq.

Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ma'naviyat tushunchasiga quyidagicha ta'rif keltiradi: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat". [3, 296] Yurtboshimizning so'zlari yuqoridagi fikrlarimizning tasdig'i sifatida yangramoqda. Darhaqiqat, ma'naviyat – umrimiz poydevori, hayotimizning asl ma'nosidir.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR.

"Ma'naviyat" leksik-semantik kategoriyasi va uning ma'naviy guruhlarini tahlil qilish uchun yozuvchilarning asarlariga murojaat qilamiz. Chunki ularda "ma'naviyat" kategoriyasi ko'p uchraydi va aynan ular asarning tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi. Xususan, Ozod Sharafiddinovning "O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan" maqolasi vatanparvarlik ruhida yozilgan ta'sirli asarlardan hisoblanadi. Maqolada *Vatan, muhabbat, ro'shnolik, saxovat, shukrona, o'kinch, baxt, fidokorlik, tarbiya, vatanparvarlik tarbiyasi, sevgi, jasorat, bardosh, chidam, vatanparvarlar, ma'rifat ishlari, samimiyat, riyokorlik, savob ish, aql-zakovati* kabi "ma'naviyat" umumiy semali birliklar uchraydi. Ushbu birliklarning qo'llanishi ham maqolaning ko'pchilik tomonidan sevib o'qilishiga sabab bo'lgan.

Men yetmishga kirib, umrimda nimaiki ro'shnolik ko'rgan bo'lsam, shu Vatanning bag'rida uning saxovati tufayli, "bir mehribon qo'l" bilan peshonamni silagani tufayli ko'rdim. Ushbu gapdagi *ro'shnolik, saxovati* leksemalarida yaxshilik va ijobiylik umumiy semalari mavjud.

Nazarimda, *"tarbiya", "vatanparvarlik tarbiyasi"* degan narsani ham butunlay bir tomonlama tushunamiz, shekilli. Ushbu gapda yozuvchi *tarbiya vatanparvalik tarbiyasi* atov birliklari orqali Vatanga bo'lgan muhabbatini o'quchiga oson yetkazib bera olgan. "Tarbiya" leksemasida "odob-axloq", "ulg'ayish", "voyaga yetkazish" semalari mavjud. Ozod Sharafiddinov ushbu leksemani "vatanparvarlik" leksemasi bilan biriktirib yangi ma'no hosil qilgan.

Vatanni sevis va, ayniqsa, bu sevgini amalda namoyon qilish unchalik oson ish emas. Bu odamdan juda katta jasoratni, bardoshni, chidamni talab qiladi.



[<https://kh-davron.uz>] “Sevgi” leksemasi “mehr” ma’naviy guruhiga kirsa, “bardosh” va “chidam” leksemalari “sabr” ma’naviy guruhiga kiradi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, har bir badiiy asarda “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasi va uning ma’naviy guruhlari uchraydi. Biroq mazkur maqoladagi leksik birliklar o’zining pafosi, ma’naviyatga undashi, ma’naviy ruhlantirishi bilan kishini ezgulik sari chorlaydi. Maktab darsliklarida shunday ma’lumotlar bilan yog’rilgan asarlarning mavjudligi ma’naviy tarbiyaning bir vositasi sifatida qaraladi. Ozod Sharafiddinovning “O’lsam ayrilmasman quchoqlaringdan” maqolasida “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasining barcha ma’naviy guruhlarga oid leksemalarning mavjudligi ijodkorning ma’naviy yuksakligi bilan ham o’lchanadi. Maqoladagi atov birliklar millat xarakteridagi vatanparvarli, saxovatlik, jasorat kabi qarashlarni ham yoritishga xizmat qilganligiga guvoh bo’lamiz.

References:

1. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B 108
2. Эркаев А. Миллий ғоя ва маънавият. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 46
3. Yuldashev F.H. “Ma’naviyat” umumiy semali atov birliklarni leksik kategoriya sifatida o’rganishning lingvistik asoslari // “So’z san’ati” Xalqaro jurnali. – Toshkent, 2022 yil, 1- son. ISSN 2181-9297. – B. 15-20.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O’zbekiston, 2017. – 296 b.
5. <https://kh-davron.uz>
6. Sharafiddinov. O. O’lsam ayrilmasman quchoqlaringdan. Maqola.